

ONA TILI

Ona tili ta'imi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'imi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. 7-sinfda DTS talabiga ko'ra asosiy ko'rsatkich fikrni 14-16 gap miqdorida yozma ravishda bayon etish, sifat ko'rsatkichlari: gaplarda fikrni aniq, mantiqiy izchillikda yoritish, mustaqil gaplarni, qo'shma gap qismlarini, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan, matniy sinonimlar va boshqa vositalardan foydalana olish, xatboshilarni to'g'ri ajratish, matniy sinonimlarni ishlata bilish, fikr izchilligini ta'minlash va tuzilgan matnning imloviy uslubiy savodlilik darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra o'quvchilar 7-sinfda sinfdan- sinfga ko'chirish imtihonlarida ona tili fanidan ijodiy -tavsifiy matn yaratadilar.

Matn-o'quvchi tomonidan ayrim voqea -hodisa, ko'rinish, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasidir. Matn ma'lumotnoma va ijodiy-tavsifiy turlarga bo'linadi.

Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matnda so'zlarning ko'chma ma'nolaridan, tilning badiiy -tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi, voqea-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

Ijodiy-tavsifiy matn o'quvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoxud shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardan biri o'quvchining ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirishi, ularni badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflashi, izohlashidir.

Matn o'qituvchi tavsiya etgan tasviriy san'at asari yoki har bir o'quvchi uchun tayyorlangan rasmi kartochkalar asosida yaratiladi. Ijodiy tavsifiy matn uchun tabiat tasviri aks ettirilgan va o'quvchilar yoshiga mos biror bir voqea tasvirlangan hamda ular o'rgangan biror badiiy asarga ishlangan rasmlar berilishi maqsadga muvofiq. Matn yaratish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim.

»tasviriy san'at asari yoki rasmi kartochkada berilgan rasm g'oyasi va mazmunini chuqur anglab olishi;

»rasm asosida asosiy fikrlarni aniq ,ketma-ket bayon etilishiga erishishi;

»rasmda aks etgan narsa, voqea-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;

»mavzuga doir o'z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;

»matn jumllarini tuzishda uslubiy ravonlikka,imlo savodxonligiga e'tibor berishi;

»matnning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni qayta o'qib chiqishi;

»tayyor bo'lgan matnni oqqa ko'chirishi;

Matn uchun material 3 varianda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan rasm bo'lib, rasm bilan birga matn yozishning bir turi asosidagi topshiriq beriladi. Tanlangan rasmlar o'quvchiga tarbiyaviy jihatdan mos bo'lishi kerak. Bir o'quvchi 3 ta variantdan (konvertndan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertndagi rasm doskaga osib qo'yiladi. Rasm asosida berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. Matn hajmi kamida 1,5- 2 bet bo'lishi lozim.

Tasviriy matn yozish uchun 2 astronomik soat beriladi.

Matn uchun rasmlar o'qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metod birlashmasida muhokama qilinib, ma`qullanadi. Ma`qullangan materiallar maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

Matn quyidagi bilim, ko'nikma va malaka (BKM) elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

Asar mazmuniga mos sarlavha tanlay olishi - 0-5 ball

»Asar mazmunini yoritishga xizmat qila oladigan reja tuzganligi- 0-5 ball

»Reja asosida fikrni izchil bayon eta olishi - 0-5 ball

»Uslubining ravonligi- 0-5 ball

»Imlo va ishorat xatolariga yo'l qo'ymaganligi - 0-5 ball

»Husnixatining talab darajasida bo'lishi- 0- 5 ball

Ballar jamlanib o'rtacha ball chiqariladi.